“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Prokuratura organlarining transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish sohasidagi faoliyati

Islom Umarov,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б.
Huquqshunos
e-mail: islomumarov@mail.ru

Аннотация. Jinoyat qonunchiligi jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali vositalardan biri bo‘lib, uning normalarini yagona talqin qilish va to‘g‘ri qo‘llashni talab qiladi. Bu turdagi huquqbuzarliklarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jinoyat qonunchiligi prinsiplarini va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashning kafolati hisoblanadi.

Калит сўзлар. transport

Аннотация. Уголовное законодательство является одним из эффективных средств борьбы с преступностью и требует единого толкования и правильного применения его норм. Правильная квалификация данного вида правонарушений является гарантией обеспечения принципов уголовного законодательства и прав и законных интересов граждан.

Ключевые слова. транспорт

Annotation. Criminal legislation is one of the effective means of combating crime, requiring uniform interpretation and correct application of its norms. The correct qualification of these types of offenses is a guarantee of ensuring the principles of criminal legislation and the rights and legitimate interests of citizens.

Keywords. transport

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi” tasdiqlangan. Mazkur Kontseptsiyaning 3-bandida

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish nazarda tutilgan.

Ta'kidlash joizki, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishning ijtimoiy xavfliligi yo‘llarda harakat xavfsizligi qoidalarining buzilishi natijasida odamlarning sog‘ligiga shikast yetkazilishi yoki ularning o‘limi, halokatga sabab bo‘lishi, mulkiy ziyon yetishi va boshqa shu kabi oqibatlarning kelib chiqishi bilan izohlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, 2024 yil davomida O‘zbekistonda 9364 ta yo‘l-transport hodisasi rasman qayd etilgan bo‘lib, avariyalar oqibatida 189 kishi halok bo‘lgan, 285 kishi jarohat olgan.

Yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishga qarshi kurashda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bir qatorda, aybdor shaxslarga davlat majburlov choralari, jumladan, jinoyat qonunchiligi normalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat qonunchiligi jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali vositalardan biri bo‘lib, uning normalarini yagona talqin qilish va to‘g‘ri qo‘llashni talab qiladi. Bu turdagi huquqbuzarliklarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jinoyat qonunchiligi printsiplarini va fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning kafolati hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish kabi transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatiga to‘g‘ri huquqiy baho berishda uning jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi obyektiv va subyektiv belgilarni tahlil qilish muhim. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 266-moddasida nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, ushbu jinoyatning bevosita obyekti transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning qo‘shimcha bevosita obyekti shaxsning sog‘ligi yoki hayotini qo‘riqlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Mazkur jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy xavfli qilmishning harakat yoki harakatsizlik shakllarida ifodalanishi mumkin. Ushbu jinoyat tarkibi blanket dispozitsiya tuzilishiga ega bo‘lgani sababli, qoida buzilishi O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 19 yanvardagi O‘RQ-900-sonli “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022 yil 12 aprel 172-sonli qaroriga havola qilish orqali, ya'ni yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining qaysi bandlari buzilganini aniqlash zarur.

Ko‘rilayotgan qilmish moddiy tarkibli jinoyat hisoblanib, obyektiv tomonning zaruriy belgisi sifatida yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining buzilgani natijasida insonning badaniga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast

yetkazilishi nazarda tutilgan. Ushbu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, albatta, yo‘l harakati yoki transport vositalaridan foydalanish qoidalarining qaysi bandlari buzilganini va ulardan qaysilari JK 266-moddasida nazarda tutilgan oqibatlar bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lganini aniqlash zarur.

Sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarni tez va to‘la ochishning asosiy maqsadi bunday hodisalarning sabab va shart-sharoitlarini chuqur o‘rganish va ularga keyinchalik yo‘l qo‘ymaslikdir. Yo‘l-transport hodisasi deganda transport vositasining yo‘ldagi qatnovi jarayonida sodir bo‘lib, odamlarning o‘limi yoki ularning sog‘ligiga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo‘ladigan hodisa tushuniladi.

Yo‘l-transport hodisalarini belgilashda uch asosiy mezonga e'tibor qaratish kerak:

- Birinchidan, unda transport vositalarining ishtirok etishidir. Transport vositalari sifatida avtomobillar, mototsikllar, motorollerlar, motokolyaskalar, mopedlar, tramvaylar, trolleybuslar, traktorlar hamda dvigatelning quvvati va eng yuqori harakatlanish tezligidan qat'iy nazar, boshqa o‘ziyurar mexanizmlar transport vositalari hisoblanadi. Transport vositalari qatoriga yuqoridagilardan tashqari velosipedlar va ot-ulov vositalarini ham kiritish mumkin;

- Ikkinchidan, transport vositasining harakatda bo‘lganligi hisoblanadi. Agar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xavfli oqibatlar turgan transport vositasida, masalan, avtomashinaning yukxonasidagi yuk tushib ketib insonga tan jarohati yetkazgan bo‘lsa, bu hodisa yo‘l-transport hodisasi emas, balki yuklarni ortish va tushirish jarayonida texnika qoidalarini buzish sifatida hisobga olinishi kerak bo‘ladi va bu yo‘l-transport hodisasi bo‘lmaydi;

- Uchinchidan, odamlarning halok bo‘lishi yoki jarohatlanishi yoxud inshootlarga moddiy zarar yetkazilishi hisoblanadi. Yo‘l-transport hodisalari natijasida kelib chiqqan oqibatlarga qarab qonun hujjatlariga ko‘ra jinoiy, ma'muriy javobgarlik choralari va ular bilan bir qatorda moddiy zararni qoplash uchun fuqaroiy-huquqiy javobgarlik choralari qo‘llanilishi mumkin.

O‘zining xususiyati va yuzaga kelish mexanizmiga ko‘ra, yo‘l-transport hodisalari juda xilma-xildir. Yo‘l-transport hodisalarini hisobga olish va tahlil etish uchun ularning xususiyatiga qarab quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: to‘qnashuv, ag‘darilib (to‘ntarilib) ketish, turgan transport vositasini urib ketish, to‘siqlarga urilish, piyodalarni bosib ketish, velosipedchini bosib (urib) ketish, aravani bosib (urib) ketish, hayvonlarni bosib (urib) ketish va boshqa yo‘l-transport hodisalari.

1. To‘qnashuvlar jumlasiga transport vositalarining barcha ro‘paradan, bir tomonga ketayotgan va yonlama to‘qnashuvlar, shuningdek to‘satdan to‘xtagan transport vositasiga (svetofor oldida, harakatda, tiqilinch natijasida to‘xtaganda) kelib urilishlar va temir yo‘l harakati vositalarining izlar ustida to‘xtagan (qoldirilgan)

transport vositasi bilan to‘qnashuvlar kiradi.

2. Ag‘darilib (to‘ntarilib) ketishlar qatoriga harakatlanib borayotgan transport vositasining barqarorligini yo‘qotgan va ag‘darilib ketgandagi yo‘l-transport hodisalari kiradi. Avtomobillar to‘qnashib ketgan, piyodaga kelib urilgan va boshqa shu singarilardan keyin ikkilamchi hodisa tariqasida ag‘darilib ketishi sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari ag‘darilib ketishlarga kirmaydi. Bu turdagi yo‘l-transport hodisasida odatda bitta transport vositasi ishtirok etadi.

3. To‘siqlarga urilish – harakatsiz predmetga (ko‘prik tayanchiga, yoritgich simyog‘ochga, to‘siq yoki devorga va hokazo) borib urilganda yoxud shu predmetga teglib ketgandagi yo‘l-transport hodisalari kiritiladi.

4. Piyodalarni bosib (urib) ketishlar qatoriga transport vositasi odamga borib urilgan yoki uning o‘zi harakatlanayotgan transport vositasiga borib urilgan (yugurib kelib urilgan) hollardagi yo‘l-transport hodisalari kiradi. Bu turga, shuningdek, piyodalarning yuk avtomobillarida tashilayotgan predmetlardan (taxta, xoda, yashiklar va hokazolardan) jarohatlangandagi yo‘l-transport hodisalari kiritiladi.

5.Velosipedchini bosib (urib) ketish jumlasiga transport vositasi velosipedchiga borib urilgan yoki uning o‘zi harakatlanayotgan transport vositasiga borib urilgandagi yo‘l-transport hodisalari kiradi.

6. Turgan transport vositasini urib ketishga yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositalaridan biri avariya vaziyati yuzaga kelguniga qadar harakatsiz holatda bo‘lgandagi to‘qnashuvlar kiradi.

7. Aravani bosib (urib) ketish jumlasiga mexanik transport vositasi aravaga qo‘shilgan hayvonlarga yoki aravaga borib urilgan yoxud aravaga qo‘shilgan hayvonlar harakatlanayotgan transport vositasiga kelib urilgandagi yo‘l-transport hodisalari kiradi.

8. Hayvonlarga kelib urilishlar jumlasiga transport vositasi parrandalar, yovvoyi yoki uy hayvonlariga (shu jumladan yuk hayvonlari va miniladigan hayvonlarga) kelib urilgan yoki parrandalar, hayvonlarning o‘zi harakatlanayotgan transport vositasiga urilgan holdagi yo‘l-transport hodisalari kiritiladi.

9. Boshqa yo‘l-transport hodisalari jumlasiga: tramvayning (to‘qnashuv yoki ag‘darilib ketishiga olib kelmagan) izdan chiqib ketib, transport vositasini yoki piyodalarni urishi, yuk avtomobillaridan yuk tushib ketishi natijasida bo‘ladigan falokatlar, harakatlanayotgan transport vositasidan yo‘lovchining qulab tushishi yoki uni salonida yiqilib tushishi va boshqalar kiradi.

Bugungi kunda jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda yo‘l harakati ishtirokchilari tomonidan sodir etilayotgan qoidabuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda bu boradagi jinoyatlarning oldini olish hamda sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashda prokuratura

organlari muhim o‘rin tutadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 2-moddasida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish belgilangan.

Undan tashqari, aynan prokuratura organlari bu sohada qonun ustuvorligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish ishlarini muvofiqlashtirish, yo‘l harakati xavfsizligiga oid qonunlar ijrosini nazorat qilish hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishining oldini olishda faol ishtirok etadi. Qolaversa, jinoyat uchun jazo muqarrarligi tamoyili prokuratura faoliyatida asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Bu esa faqat jazolash emas, balki profilaktika, ya'ni jinoyat sodir etilishining oldini olish bo‘yicha samarali choralarni qo‘llashni ham nazarda tutadi.

Prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun asosida o‘z faoliyatini tashkil qilgan holda mamlakatimizda qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat qilar ekan, yo‘l harakati xavfsizligi sohasida ularning asosiy vazifalari yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qiluvchi organlarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha davlat va jamiyat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, holat tahlillari va aniqlangan muammolar yuzasidan tegishli organlarga taqdimnomalar kiritish hamda aybdorlarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlashdan iboratdir.

Yuqorida qayd etilgan statistik ma'lumotlarga qaraganda, birgina 2024 yil davomida mamlakatimizda 9 mingdan ortiq yo‘l-transport hodisasi qayd etilgan. Ularning asosiy sabablari sifatida transport vositasini tezlikda boshqarish, piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya qilmasligi, haydovchilarning mast holda bo‘lishi, yo‘l infratuzilmasidagi kamchiliklar ko‘rsatilgan.

Prokuratura organlari tomonidan ushbu holatlarga doir 1500 dan ortiq taqdimnoma va 300 dan ortiq xususiy ajrim sudlarga yuborilgan. Bu esa javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash va jinoyatning oldini olishda muhim mexanizm hisoblanadi.

Shu o‘rinda xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo‘lsak, masalan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarda yo‘l harakati xavfsizligi sohasida qat'iy tizim va aniq javobgarlik mexanizmlari mavjud. Masalan, Germaniyada har bir yo‘l-transport hodisasi prokuratura nazoratida bo‘ladi va jazoning muqarrarligi printsipi qat'iy amal qiladi. Fransiyada esa haydovchilar maxsus reyting tizimi asosida baholanadi va qoidabuzarliklar reytingni pasaytiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda ba'zi hollarda huquqbuzarliklar bo‘yicha jazo choralari o‘z vaqtida va to‘liq qo‘llanilmasligi, yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha aholi orasida

huquqiy ong va madaniyatning yuqori emasligi, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida axborot almashinuvi samaradorligi yetarli emasligi kabi muammolar ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekistonda bu kabi muammolarning yechimi sifatida yo‘l harakati huquqbuzarliklari bo‘yicha yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, prokuratura organlari tomonidan doimiy monitoring va tahlil ishlarini kuchaytirish, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish taklif etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, yo‘l harakati xavfsizligini ta'minlashda jazoning muqarrarligi printsipi asosiy huquqiy vosita hisoblanadi. Ushbu borada prokuratura organlari nafaqat jinoyatga qarshi kurashuvchi, balki uning oldini oluvchi va huquqiy tarbiya vositalarini joriy etuvchi muassasa sifatida muhim o‘rin tutadi. Demak, javobgarlikning muqarrarligi va yo‘ldagi xavfsizlik – o‘zaro bog‘liq va barqaror huquqiy siyosatni talab qiluvchi sohalardan biridir. Qolaversa, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jinoyatning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, prokuratura organlari tomonidan uning oldini olish, ayniqsa jinoyat sababi va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarning aniqlanishi va bartaraf etish faoliyati ustidan nazoratni olib borishi, mazkur masalalarda mas'ul vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashishi muhim hisoblanadi.